

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURASINING ISLOH QILINISHI

UraKov Djahongir Rajabovich

*Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Yuridik fakulteti
Maxsus huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi*

Shomuradova Nodira G'afur qizi

*Sh. Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Yuridik fakulteti
talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tarixi, prokuratura tizimi, vazifalari, yo'nalishlari va bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar o'z ifodasini topgan.*

Kalit so'zlar: *Bosh prokuratura, prokuratura tizimi, prokuratura faoliyati yo'nalishlari, ixtisoslashtirilgan prokuratura, O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyi.*

Prokuratura davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organidir. Prokuratura so'zi lotincha "procuratio"- g'amxo'rlik qilmoq, boshqarmoq degan ma'nolarni anglatadi.

Prokuratura tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu organning dastlabki tashkil qilinishining o'zi aynan fuqarolarning huquq va manfaatlarini, davlat manfaatlarini hamda eng avvalo, qonunning ustuvorligini himoya qilish uchun tuzilgan edi.

Davlat va jamiyat, inson va fuqarolarning huquqlarini ta'minlovchi qonunlar ijrosi ustidan nazorat vazifasi O'rta Osiyoda bundan qariyb 1200 yil avval ham maxsus shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Prokuratura degan terminologiyadan foydalanilgan bo'lmasada, albatta, o'z davriga yarasha jamiyatdagi qonunlarning ijrosini nazorat qilib boruvchi davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan. O'rta Osiyoda prokuror nazorati deb nomlangan institut, shu terminologiyaning qo'llanilishi 1867-yilda qabul qilingan vaqtinchalik Nizom loyihasida nazarda tutilgan, xolos. Lekin bu davrda prokuratura maxsus organ sifatida hali tashkil etilmagan edi. Ularning vazifasini harbiy gubernatorlar olishgan.

1887-yilda esa adliya vazirining buyrug'iga ko'ra Rossiya adliya vaziriga ma'muriy tartibda bo'ysinuvchi Sirdaryo, Yangi Marg'ilon, Samarqand, VernevsK viloyat sudlari qoshida prokuraturalar tashkil etildi. Prokuratura shunday shaklda 1917-yilgacha mavjud bo'ldi. Sudlar to'g'risidagi 1-dekret bilan prokuratura tugatildi. Uning faoliyati 4 yildan ko'proq vaqt qayta

tiklanmadi. Tarixiy tajriba qonunchlik ustidan nazorat qilishni amalga oshiruvchi mustaqil organni tashkil etish zarurati haqida fikrga yetib keldi.

TASSR ning davlat prokuraturasi tashkil qilinishi haqidagi dekret loyihasi ustida ishlash 1922-yil boshida avj olib ketdi. 1922-yil 9-mayda Turkiston Respublikasi Sovnarkomi va MIQ 1922-yil 3-iyunda qonuniy kuchga kirgan TASSR ning davlat prokuraturasi haqidagi Nizomni tasdiqlaydilar. 1922-yil iyun oyida TASSRda prokuratura ham markazda, ham joylarda tashkil etildi. Shundan boshlab Turkistonda prokuraturaning tashkil etilishi boshlandi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi prokuraturasiga keladigan bo'lsak, uni tashkil etish borasidagi dastlabki dadil qadam 1992-yil 8-yanvarda tashlandi. Ya'ni bu vaqtda O'z SSR prokuraturasini mustaqil O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga o'tkazilishini belgilovchi Farmon qabul qilindi. Aynan ana shu sana O'zbekiston prokuraturasi tashkil etilgan kundir. Biroq ushbu sana 2016-yilga kelibgina O'zbekistonda rasman Prokuratura organlari xodimlari kuni sifatida belgilandi.

Dastlab shunchaki O'zbekiston Prokuraturasi deb yuritilgan idora 2001-yil 29-avgustda "Prokuratura to'g'risida" gi qonunning yangi tahriri qabul qilingach, O'zbekiston Bosh prokuraturasi aylantirildi. O'tgan vaqt davomida bu tizimda 6 nafar Bosh prokuror almashdi. Hozirda ushbu lavozimni Nig'matilla Yo'ldoshev egallab turibdi. Nig'matilla Yo'ldoshevgacha ishlagan 5 nafar Bosh prokurorning faqat 2 tasigina nomiga dog' tushirmasdan kursisini tark etgan, xolos. Bular: Bo'ritosh Mustafoyev hamda Usmon Xudoyqulovlardir.

Prokuratura deganda nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari yoki mansabdor shaxslar tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimidir. Prokuraturaning vazifalari "Prokuratura to'g'risida" gi qonunning 2-moddasida ko'rsatib qo'yilgan. Unda ko'rsatilishicha, prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, qonunmiylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va ekinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iboratdir. Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari esa qonunning 4-moddasida o'z ifodasini topgan. Ushbu qonunning 10-moddasida esa O'zbekiston Respublikasi Prokuratura organlarining tizimi ko'rsatib o'tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

Qoraqalpog'iston prokuraturasi;

Viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;

Tumanlar va shaharlar prokuraturalari;

Viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi, O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi;

Tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va MIB, shuningdek uning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-bobi 118-121- moddalari prokuraturaga bag'ishlangan. Unga ko'ra, prokuratura organlarini tashkil qilish, ularning vakolatlari va faoliyat ko'rsatishi tartibi qonun bilan belgilanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zero, hozirda prokuratura majburlovchi yoki jazolovchi organ emas, balki, eng avvalo, insonlarning huquq erkinliklarini himoya qiluvchi, ularning buzilgan huquqlarini tiklovchi, qonunlarning qay darajada amalga oshirilayotganligi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ hisoblanadi.

Prokuratura sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan biri sifatida shuni aytishimiz mumkinki, prezidentimizning joriy yilning 27-aprelidagi qaroriga muvofiq, Jizzax viloyatining Zomin va Baxmal tumanlari hududida tabiatni muhofaza qilish, hududnin ekologik holatini yaxshilash maqsadida Bosh prokuratura tizimida Zomin tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat va yerlardan noqonuniy foydalanishni bartaraf etish bo'yicha ixtisoslashtirilgan prokuratura tashkil etildi.

O'zbekiston prokuraturasi tashkil topganligining 30 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan, 2 mingdan ortiq eksponatlarni o'zida mujassam etgan O'zbekiston prokuraturasi tarixi muzeyining ochilishi ham Prezidentimizning bu sohaga qaratayotgan e'tiborlarining namunasidir. Muzey ekspozitsiyasi orqali prokuratura tiziming uzoq yillik faoliyati, shakllanishi, rivojlanish jarayonlari- yorqin sahifalar va mashaqqatli davrlardan iborat tarixi yoritilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, prokuratura davlat va jamiyat huquq hamda manfaatlarini himoya qilishda, qonuniylikni yuksaltirishda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni fuqarolar orasida targ'ib qilishda yetakchi rolni o'ynaydigan davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organidir. Prokuratura organini yanada takomillashtirish uchun bu sohani tanlamoqchi bo'lgan talabalarga o'qishni amaliyot bilan birga olib borishlariga imkon berish, prokuratura to'g'risida yetarlicha tushuntirishlar berish, qolaversa, ularning huquqiy ong va madaniyatini yanada yuksaltirish, ushbu

sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning malakasini uzluksiz amalga oshirib borish tizimini bosqichma-bosqich amalga oshirib borish, ularning xorij amaliyotini o'rganishlariga ham sharoit yaratib berilishi kerak deb hisoblayman!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2001-yil 29-avgustdagi yangi tahrirda qabul qilingan "Prokuratura to'g'risida" gi qonun <https://www.lex.uz>
2. Prokuror Nazorati- Umumiy qism O.M.Madaliyev Toshkent- "ILM ZIYO"- 2012 61, 63-betlar
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/20596>
4. PF-5438-son 08.05.2018 <https://www.lex.uz> .